


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**70410506 – Davlat moliyaviy nazorati va auditi magistratura
mutaxassisligining
MALAKA TALABI**

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	8
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. Umumiy tavsifi

70410506 – Davlat moliyaviy nazorati va auditi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 70410506 – Davlat moliyaviy nazorati va auditi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari

“Biznes, boshqaruv va huquq” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida davlat moliyaviy nazoratini va ichki auditini tashkil etish va o'tkazishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek, byudjet tizimi byudjetlari ijrosi yuzasidan nomuvofiqliklarni bartaraf etish va davlat mablag'larini sarflashda samaradorlikni oshirish bo'yicha ichki audit tavsiyalarini shakllantirish, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, istiqbolni belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari; O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasida; Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va hududiy boshqarmalari; Vazirlik va idoralarning Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmalari; oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalari; byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar;

moliya organlari; davlat maqsadli jamg‘armalari; byudjet mablag‘larini taqsimlovchi organlar.

70410506 – Davlat moliyaviy nazorati va auditi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilar oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi tashkilotlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

vazirlik va idoralarning Ichki audit va moliyaviy nazorat bo‘limlari;

byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar;

davlat maqsadli jamg‘armalari;

byudjet mablag‘larini taqsimlovchi organlarda kompleks masalalarni yechish, maqsadli loyihalarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlarni olib borish.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *pedagogik;*
- *moliyaviy-iqtisodiy;*
- *hisob, tahlil va nazorat;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *davlat moliyaviy nazorati;*
- *davlat sektorida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati;*
- *davlat sektorida tashqi audit;*
- *axborot-tahliliy.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari

70410506 – Davlat moliyaviy nazorati va auditi mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma‘ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

byudjet tashkilotlarida mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi holati, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini o'rganish

davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ijrosini amalga oshirish, byudjet ijrosiga oid hisob va hisobotlar axborotlarining ochiqligi, byudjet intizomiga rioya etilishi holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va tizimlashtirish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

byudjet g'azna ijrosi jarayonida dastlabki, joriy va yakuniy nazorat tadbirlarini amalga oshirish, moliyaviy nazoratga oid ma'lumotlarni jamlash, tahlil qilish, mablag'larning maqadli sarflanishi holatiga baho berish;

vazirlik, idoralar va qo'mitalar hamda byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish, faoliyat natijalari yuzasidan hisobotlarni shakllantirish;

davlat sektorida tashqi auditni rejalashtirish, audit tadbirlarini amalga oshirish, audit natijalarni umumlashtirish, hisobotlarni umumlashtirish, davlat auditida dasturiy komplekslarning qo'llanilishi va uning imkoniyatlaridan foydalanish

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

vazirlik va idoralar ichki audit xizmati boshqarmalari, moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari, Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda ichki audit xizmatini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish;

byudjet tashkilotlarining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, ichki auditorlar malakasini oshirish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

byudjet tashkilotlarining davlat moliyaviy nazorati faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ijrosini ta'minlash;

davlat sektorida ichki audit va tashqi auditni tashkil etish va amalga oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish va nazorat ishlarini olib borishda samaradorlikni

aniqlash;

qabul qilinadigan qarorlarni byudjet hisoboti, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqish hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

davlat sektorida moliyaviy nazorat jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar va kamchiliklar yuzasidan tavsiyalarni shakllantirish, moliyaviy yo‘qotishlarni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

nazorat va taftishni tashkil etish va o‘tkazish ishlarini boshqarish hamda muvofiqlashtirish.

Davlat moliyaviy nazorati va auditi faoliyatida:

davlat sektorida davlat moliyaviy nazorati va auditini to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati va davlat sektorida tashqi auditni tashkil qilishning nazariy asoslari, tashkil qilish va o‘tkazish shartlari, asosiy talablari va samaradorlik masalalari yuzasidan amaliy holatining tavsiflarini aniqlash;

davlat moliyaviy nazorati sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

davlat sektorida samaradorlik auditini o‘tkazish va davlat resurslarini samarali sarflash natijasida moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish;

byudjet tizimi va byudjet parametrlari, byudjetdan tashqari turli jamg‘armalarning shakllanishi hamda ijrosi bo‘yicha nazoratni yuritish va nazorat qilish;

byudjet tashkilotlarining moliyaviy mablag‘larini monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini baholash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

axborotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash;

byudjet tizimi byudjet ijrosini amalga oshirish qo‘llaniladigan dasturiy majmualardan foydalanish hamda ularning ma‘lumotlarini tahlil qilish;

davlat moliyaviy nazorati va auditi faoliyatiga oid dasturiy majmualardan foydalanish, axborotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

davlat moliyaviy nazorati va auditi borasida tahliliy ishlar olib borish;

davlat moliyaviy nazorati va auditi faoliyatining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

byudjet tizimi byudjetlarida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

davlat va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari va xarajatlari ijrosi yuzasidan nazoratni tashkil qilish, nomuvofiqliklari bo'yicha ichki audit tavsiyalarini shakllantirish hamda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

davlat va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosiga oid hisobotlarni to'g'riligini nazorat qilish, kamchiliklarini aniqlab ular yuzasidan tavsiyalarni shakllantirish va ularning axborotlarini tizimlashtirgan holda tahlil qilish;

davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va yuritish;

vazirlik va idoralar ichki audit xizmati faoliyatini tashkil qilish, umumiy rejalashtirish jarayonini amalga oshirish, risk omilli tahlillarini o'tkazish, byudjet tashkilotlarini risk tahlillari asosida nazoratni rejalashtirish, joriy baholash va nazoratini amalga oshirish;

davlat sektorida tashqi auditni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha metodika ishlab chiqish, moliyaviy audit va muvofiqlik auditini samarali tashkil qilinishini ta'minlash;

davlat sektorida davlat resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan nazoratni tashkil etish va komplaens nazoratni o'tkazish jarayonida ularning axborotlarini tahlil qilish;

davlat sektorida ichki va tashqi audit hamda moliyaviy nazoratini rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy espertizadan o'tqazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Mutaxassislik bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	900	30	
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	DMB 1105	Davlat moliyasini boshqarish	150	5	1
1.04	DSBHH 1105	Davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisoboti	150	5	1
1.05	DSIA 1205	Davlat sektorida ichki audit	150	5	2
1.06	DMN 1105	Davlat moliyaviy nazorati	150	5	2
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2,3
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2,3
	Kvalifikatsiya	Auditor, taftishchi (pedagog-tadqiqotchi)			
		Jami	1800	60	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi tayyorlash	1200	40	1,2,3,4
		Jami	1800	60	
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yoʻnalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning oʻquv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), davlat moliyaviy nazorati, davlat sektorida ichki audit, davlat sektorida tashqi audit, moliyaviy audit, komplaens nazorat, samaradorlik auditi, muvofiqlik auditi, byudjet nazorati, byudjet tashkilotlari, byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari jamgʻarmalari, byudjetning gʻazna ijrosi, davlat sektori, davlat maqsadli jamgʻarmalari, moliyaviy nazorat, nazorat va taftish, davlat byudjeti, smeta, xalqaro standart, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, oʻquv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari
hamda kadrlar iste’molchilari**

ISHLAB CHIQLILGAN:



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor T.Z. Teshabayev

2024 yil “14” 06

M.O’.

KELISHILGAN:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor M.Boltabayev



2024 yil “25” 06

M.O’.

**O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi**

Rektor E.Xoshimov

2024 yil “19” 06

M.O’.

**O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi**

Rais M.Atadjanov

2024 yil “21” 06

M.O’.



**O‘zbekiston Respublikasi
Hisob palatasi
sho‘ba mudiri**

Ф.И.ИИ Mirzoev S.

2024 yil “20” 06

M.O’.

